

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

2024/6-SON
ILLOVA TO'PLAM

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

| | |
|---|-----|
| Ч.Х.Чамолов | |
| Ифодаи мафхуми ишқ дар шеъри фарзона | 435 |
| Е.В.Шевченко | |
| Особенности историзма в романах пирамкула кадырова | 439 |
| Я.И.Нишанов | |
| Общечеловеческое значение сюжета, касающийся всего человечества..... | 441 |
| E.R.Adjemina | |
| Phraseological image and motivational model | 444 |
| Н.Д.Ирина | |
| Влияние философии Ницше на русскую литературу начала XX века..... | 447 |
| Н.Д.Ирина | |
| Литературный стиль и философские идеи в произведениях Франца Кафки: Абсурд, отчуждение и экзистенциальный кризис..... | 453 |
| Я.И.Нишанов | |
| Место и роль воспевания самой прекрасной истории в творчестве Дурбека | 457 |

TILSHUNOSLIK

| | |
|--|-----|
| I.M.Qo'chqarov | |
| The grammatical features of speech acts in english | 460 |
| A.Z.Nurbek | |
| O'zbek tilshunosligida nutqiy aktlarga doir tadqiqotlar: usul va yondashuvlar | 464 |
| S.A.Yusupova | |
| Pragmatic use of respect in various communicative contexts | 471 |
| S.A.Yusupova | |
| linguistic expressions of respect in english and japanese | 474 |
| Sh.Y.Usmonova | |
| Comparative study of landscape terms in english and uzbek | 477 |
| M.K.Uktamova | |
| The main components expressing the meaning of the seme "Character" in english phraseological units | 480 |
| D.X.Madazizova | |
| Badiiy diskursda dialektlar individual nutq yaratuvchi vosita sifatida | 483 |
| Sh.B.Karimova | |
| O'zbek va ingliz tillaridagi son komponentli frazeologizmlarda kvantitativlikning ifodalanishi .. | 488 |
| Sh.B.Karimova | |
| O'zbek tili va ingliz tillarida kvantitativlik birliklarining sathlararo tahlili | 495 |
| Sh.R.Karimjonova | |
| Semantic analysis of visual cognitive verbs in uzbek and english | 500 |
| Sh.B.Dushatova | |
| Euphemisms representing hidden and mysterious concepts | 507 |
| Sh.T.Axmadjonova | |
| Definition and components of comprehension skills | 511 |
| Sh.M.Aripova | |
| Linguocultural analysis of superstitions | 515 |
| Sh.M.Aripova | |
| O'zbek va nemis tillarida irim-sirimlari bilan bog'liq tushunchalarni ifodalovchi leksemalar tahlili | 519 |
| Y.U.Abdurazzakov | |
| Frazeologik birliklarda jinsiy va yosh identifikatsiyasi: til va madaniyatning o'zaro aloqasi | 522 |
| N.X.Alieva | |
| Interlingual correspondence as a factor in enriching phraseology and identifying isomorphism and allomorphism of languages | 525 |
| R.U.Axrorova, M.T.Mamadaliyeva | |
| O'zbek amaliyotida turistik atamalarni standartlashtirishda ingliz tilining o'mni | 530 |
| M.S.G'aniyeva | |
| O'zbekiston ijtimoiy transformatsiyalashuvi jarayonida gender munosabatlari hamda tadbirkor ayol fenomenining falsafiy talqini | 533 |



УО'К: 811.111.1+811.512

O'ZBEK TILSHUNOSLIGIDA NUTQIY AKTLARGA DOIR TADQIQOTLAR: USUL VA YONDA SHUVLAR

ИССЛЕДОВАНИЕ РЕЧЕВЫХ АКТОВ В УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКОЗНАНИИ: МЕТОДЫ И ПОДХОДЫ

RESEARCH ON SPEECH ACTS IN UZBEK LINGUISTICS: METHODS AND APPROACHES

Nurbek Axmadjonov Zokirjon o'g'li 

Farg'ona davlat universiteti nemis va fransuz tillari kafedrasи f.f.b.f.d., (PhD)

Annotatsiya

Ushbu maqolada o'zbek tilshunosligida bugungi kunda o'z dolzarbli bilan ajralib turuvchi nutqiy akt nazariyasi hamda unga doir akt va yondashuvlар xususida so'z yuritiladi. Nutqiy aktlarning jahon va o'zbek tilshunosligida alohida tadqiqot mavzusi sifatida o'rganilishi uning lingvistikada naqadar muhim ahamiyat kasb etishidan dalolat beradi. Ta'kidlash lozimki, nutqiy aktning lingvistik fahlilini amalga oshirishda qo'llanadigan uslublar ularni tasniflash uchun aniq mezonlarni ishlab chiqishda, kontekstga asoslangan yondashuvlarni ochib berishda muhim ahamiyat kasb etadi. Nutqiy aktlarni o'rganishdagi mavjud uslub va yondashuvlар uning tub mohiyatini ochib berishda asosiy o'rinn egallaydi. Maqolada o'ziga xos yondashuv o'laroq yuzaga kelgan yangilik bu nutqiy aktlarning psixolingvistika fani bilan o'zaro aloqadorligini o'rganish sanaladi. Ushbu integratsion yondashuv orqali ular o'tasidagi munosabatlar: nutqiy akt shakilanishida inson ruhiy olamining roli, inson miyasining qaysi-qismi nutqiy aktlar uchun javobgar ekanligi, nutq buzilish holatlaringin nutqiy aktlarga bevosita ta'siri kabilar ikki soha uyg'unlashgan maydonda hosil bo'ladi. Nutqiy aktlami tilshunoslilik doirasida tadqiq qilish tilni modellashtirishning yangi usullarini kashf etadi.

Аннотация

В данной статье говорится о теории речевого акта, отличающейся своей актуальностью в узбекском языкоznании сегодня, а также о актах и подходах, связанных с ней. Изучение речи выступает отдельной темой исследований в мировой и узбекской лингвистике, показывает, насколько она важна в лингвистике. Следует отметить, что методы, используемые при лингвистическом анализе речевого акта, имеют важное значение для разработки конкретных критериев их классификации и выявления контекстно-ориентированных подходов. Существующие методы и подходы к изучению речевого акта играют ключевую роль в раскрытии его сущности. Новизна статьи, как уникального подхода, заключается в исследовании взаимодействия речевых актов наукой психолингвистикой. Благодаря такому интегративному подходу формируются взаимосвязи между ними: роль психики человека в формировании речевого акта, какой отдел мозга человека отвечает за речевые акты, а также непосредственное влияние речевых нарушений на речевые акты. область, где объединены два поля. Изучение речевых актов в лингвистике открывает новые способы моделирования языка.

Abstract

This article discusses the theory of speech acts, which is currently relevant in Uzbek linguistics, as well as acts and approaches to it. The study of speech acts as a separate research topic in world and Uzbek linguistics indicates its great importance in linguistics. It should be noted that the methods used in the linguistic analysis of speech acts play an important role in developing clear criteria for their classification and revealing context-based approaches. Existing methods and approaches in the study of speech acts play a key role in revealing its fundamental essence. The novelty that emerged as a unique approach in the article is the study of the interrelationship of these speech acts with the science of psycholinguistics. Through this integrative approach, the relationship between them: the role of the human psyche in the formation of a speech act, which part of the human brain is responsible for speech acts, the direct impact of speech disorders on speech acts, etc., is formed in a field where the two fields are combined. The study of speech acts within the framework of linguistics opens up new ways of modeling language.

Kalit so'zlar: lokativ akt, illokutiv akt, perlokutiv akt, nutqiy akt nazariyasi, pragmalingvistika, usul va yondashuv, mezon.

Ключевые слова: локативный акт, иллокативный акт, перлокативный акт теория речевых актов, pragmalingvistika, метод и подход, критерий.

Key words: locative act, illocutionary act, perlocutionary act speech act theory, pragmalinguistics, method and approach, criterion.

KIRISH

Tilshunoslik tadqiqida zamonaviy yo'nalishlarning shakllanishi ushbu sohaning yanada keng taraqqiy etishiga yordam berishi bilan birgalikda kelgusidagi ilmiy tadqiqot manbalari uchun asosning shakllanishiga ham xizmat qiladi. Ana shunday yo'nalishlardan biri pragmalingvistika hisoblanib, uning o'rganish sohasi salmoqlidir. Nutqiy aktlar nazariyasi ham bevosita pragmalingvistika doirasida o'rganiluvchi obyekt sanalib, bu nutqiy jarayonning yuzaga kelishiga xizmat qiluvchi, til vositalari asosida bajariluvchi harakatdir. Nutqiy akt ifodalananayotgan so'z va jumlalar orqali maqsad va uning bajarilishiga asoslanadi. Nutq akt uzvlari so'zlovchi tomonidan bajarilgan nutqiy holati, jumladan, nimanidir so'rash, buyurish, va'da berish kabi va tinglovchi tomonidan ushbu aktning qabul qilinishi va unga nisbatan bildirilgan reaksiyadan tashkil topgan[6]. Nutq aktlari tilning kommunikativ-aloqa vazifasini ifodalaydi. Nutqiy aktlar borasida qator tadqiqotlar olib borilgan.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Jahon tilshunosligi bilan bir qatorda o'zbek tilshunosligida ham nutqiy aktlar nazariyasi borasida qator ilmiy tadqiqot ishlari olib borilgan, monografiyalar, ilmiy maqola va tezislар chop etilgan. Xususan, M. Hakimovning "Nutqiy aktlar nazariyasi[6]" o'quv qo'llanmasida ularning turli jihatlariga e'tibor qaratiladi: nutqiy aktlarning semantik strukturasi, ularni ifodalovchi vositalar[6,20], J. Ostinning nutqiy aktlar nazariyasi ta'lomi mohiyati[6,40], J. Serl konsepsiyasining o'ziga xos xususiyatlari[6,45], Z. Vendlerning nutqiy aktlar nazariyasinig shakllanishidagi roli[6,65] va shu kabi tadqiqotlarning tilshunoslikdagi roli kabilar shular jumlasidandir. Muallif nutqiy aktlar haqidagi mulohaza yuritar ekan, quyidagi fikrlarni ilmiy nuqtayi nazardan ilgari suradi: "Nutqiy aktlar muloqotga kirishuvchi kishilarning o'zaro sotsial munosabatlari asosida shakllanadi. Nutqiy muloqot aktlari nutqiy aktlar nazariyasinig tadqiqot obyekti sanaladi. So'zlashuvchilarning nutqiy akt bilan bog'liq o'zaro aloqa-aratashuv jarayonidagi verbal muloqoti nutqiy aktlarni tashkil qiladi. Nutqiy akt tushunchasi nutq hodisasi sifatida namoyon bo'ladi"[6,10]. Shuningdek, nutqiy aktlarning lug'aviy va mazmuniy xususiyatlarga ega ekanligi, ularning namoyon bo'lish o'mni matn va implisit ekanligi borasidagi ilmiy dalillar ham M. Hakimov tomonidan qayd etilgan[6,10]. O'quv qo'llanmasida J. Ostinning nutqiy aktlarga oid qarashlari ham o'ren olgan bo'lib, M. Hakimov uning nutqiy aktlar uchun lozim bo'lgan zaruriy kodlar tizimini ham quyidagicha tasniflaydi:

- 1.Umumiyl kodlarga asoslangan fonetik sistema.
- 2.Umumiyl kodlarga asoslangan grammatik tuzilish.
- 3.Nutq uchun tanlangan predmetning o'sha vaziyatdagi nutqqa qiyosan yuzaga keluvchi ifodaviy xususiyatlari, ya'ni mazmun va referensiya asoslangan sistema[6, 19].

Bundan tashqari, A. Shamahmudovaning "Bilvosita nutqiy aktlarni muloqot matnida vogelantiruvchu etnopragmatik omillar(Ispan tili misolida)"[8, 15] nomli doktorlik dissertatsiyasida nutqiy aktlarning shakllanishi uning o'ziga xos tamoyillari, nutqiy aktlarni guruhlashtirish, muloqot jarayonining uslubiy jihatdan to'g'ri bo'lishida nutqiy aktlarning roli hamda ispan tilida nutqiy akt holatining yuzaga kelishiga doir fikrlar tahlilga tortilgan[8,15].

Shuningdek, M. Qurbonovaning "O'zbek bolalar nutqining pragmatik xususiyatlari[5,20]" nomli doktorlik dissertatsiyasida bolalar nutqida uchraydigan deyktik birliklar va ular borasidagi tahlil hamda munosabatlar o'z aksini topgan. Muallifning fikricha, "Nutqiy akt qaysi jihatdan tasniflanmasin va qanday turlarga ajratilmasin, uning har bir turi o'ziga xos sintaktik strukturaga ega bo'ladi. Nutqiy aktning sintaktik strukturasi sintaksisning tahlil obyekti bo'lsa, uning shakllanish bosqichlari, kommunikativ maqsadga bo'yysundirilishi, voqelanishida muhim o'ren tutuvchi ijtimoiy muhit, muloqot vaziyati, nutq egalarining til ko'nikmalari kabilar pragmalingvistikating tadqiq obyektlari hisoblanadi[5,20]".

NATIJA VA MUHOKAMA

Nutq akti uch asosiy qismlarni o'z ichiga oladi:

| T/r | Nutqiy akt turlari | Izohi | Misollar |
|-----|--------------------|---|---|
| 1 | Lokutiv akt | Uzatilayotgan xabarning o'zi, ya'ni xabarning fonetik va Grammatik strukturasi. | <p>Uyga ket[10]. Menga ruchkani uzatib yubor[10]. Daftaringning so'nggi sahifasini och[10].</p> |
| 2 | Illokutiv akt | So'zlovchi nazarda tutgan niyat yoki maqsad. | <p>Uyga ket – ushbu jumla orqali so'zlovchi tinglovchiga buyruq berishni maqsad qilgan. Menga ruchkangni uzatib yubor – ushbu bayonotda iltimos mazmuni yuqori. Daftaringning so'nggi sahifasini och – so'zlovchi tinglovchiga buyruq berishni maqsad qilgan.</p> |
| 3 | Perlokutiv akt | So'zlovchi tomonidan uzatilgan xabarning tinglovchiga qanday ta'sir etganligi | <p>Uyga ket – ushbu xabarda nazarda tutilgan buyruq tinglovchi tomonidan amalga oshirilsa, perllokutiv aktning natijasi muvaffaqiyatl bo'ladi. Menga ruchkangni uzatib yubor – tinglovchi so'zlovchining xabariga munosabati ushbu iltimosni bajarish yoki bajarmaslikda namoyon bo'ladi. Daftaringning so'nggi sahifasini och – so'zlovchi tomonidan berilgan buyruqning tinglovchi tomonidan bajarilishi perllokutiv aktning yuzaga chiqishiga xizmat qiladi.</p> |

Yoki quyida keltirilgan misolni nutqiy akt o'laroq tahlil qilamiz:

U kitob o'qiyapti[10].

Lokutiv akt: *"U kitob o'qiyapti[10]" sintaktik butunligining ifodalananishi.*

Illokutiv akt: *tinglovchini subyektning kitob o'qiyotganligi haqida xabardor qilish.*

Perllokutiv akt: *aytilgan jumlaga nisbatan munosabatni qamrab olib, tinglovchi subyektning kitob o'qish jarayonidan xabardor bo'lgan holda sukut saqlashi yoki vaziyatga muvofiq kutib turishi mumkin.*

Nutqiy aktlar nazariyasi Jon Austin va Jon Searle kabi tilshunos olimlar tomonidan tadqiq etilgan bo'lib, ularning lingvistik tahlili so'zlarning oddiy struktural tuzilishidan tashqari u orqali ifodalash mumkin bo'lgan niyat, maqsad hamda tinglovchining uzatilayotgan xabarga nisbatan reaksiyasini ham qamrab oladi. Shuningdek, nutqiy aktlarni tahlil qilishda tanlangan jumlaga xos fonetik, morfologik, sintaktik va semantik jihatlarni ham aniqlash maqsadga muvofiq⁵⁸.

Nutqiy aktlarning lingvistik tadqiqi ochib berishda quyidagilarga ahamiyat berish muhimdir[7]:

1. **Illokutiv kuch** - unda so'zlovchi tomonidan nazarda tutilgan asosiy maqsad yoki niyat nazarda tutiladi. Masalan, "Kitobni stolning ustiga qo'ying[10]" jumlesi xilma-xil illokutiv kuchga ega bo'lishi mumkin, xususan, iltimos qilish, buyruq, taklif yoki ogohlantirish kabi. Ushbu omilning yuzaga kelishida turli vositalar mavjud, bunda asosiy e'tibor kontekstga qaratiladi. So'zlovchining so'zlash ohangi, subyekt maqomi, tinglovchi bilan bo'lgan munosabati va shu kabi omillar kontekstdan illokutiv kuchni aniqlashda yordam beradi.

2. **Illokutiv belgilar** ham nutqiy aktning o'ziga xos tarkibiy qismi bo'lib, unga, asosan, unga xos so'zlar, jumlalar kiradi: "taklif qilaman", "buyuraman", "iltimos", "marhamat"[10]. Shuningdek, so'roq gaplardagi so'roq belgisi, buyruq gaplarga xos ohang va shu kabi vositalar illokutiv belgi sifatida qo'llanib, illokutiv kuchning yuzaga kelishida asosiy rol o'yinaydi.

Nutqiy aktlarning lingvistik tahliliga doir uzvlar:



3. ***Propozitsional tarkib*** - nutqiy akt tashkil topgan xabar mazmunidir. Bunda nutqiy aktidan ko'zlangan maqsad xabarning haqiqiy bayonoti sifatida yuzaga keladi. Masalan, "Havo bulutli[10]" gapidan ko'zlangan bayonot so'zlovchiga havoning qay holatda ekanligi haqida xabar yetkazish sanaladi.

4. Nutqiy akning yana bir lingistik tahlilda muhim ahamiyat kasb etuvchi qismi bu **perlokutiv natija** sanaladi. Bu so'zlovchi tomonidan uzatilgan axborotning tinglovchida qanday taassurot qoldirganligi bilan belgilanadi. Bunda tinglovchining qabul qilingan axborotga nisbatan munosabatini ikki qismqa ajratish mumkin:

- a) rejali natija;
 - b) rejasiz natija.

Jarayonni quyidaqı misol asosida tahlil qılamız:

So'zlovchi tomonidan uzatilgan axborot: Bugun kun juda ham issiq[10].

Tinglovchi tomonidan qabul qilingan perlokutiv effekt:

- a) rejali natija:** *tinglovchi havoga mos yengilroq kiyim kiyishi mumkin;*
b) rejasiz natija: *tinglovchi xabarga bee'tibor munosabatda bo'lishi mumkin.*

Demak, uzatilayotgan axborotning tinglovchi tomonidan qay tarzda o'zlashtirilganligi axborotqa nisbatan uning xatti-harakatlari asosida baholanadi.

5. Kontekst - nutqiy aktning ma'nosini anglashda keltirilgan kontekstning mohiyatini tushunish lozim. Kontekst makon, zamon, subyekt, tinglovchining munosabati, axborot, vaziyat va shu kabilarni qamrab olib, nutqiy aktning o'zlashtirilishida asosiy ahamiyatqa ega.

Bundan tashqari, nutqiy aktlarning o'rganilishida ***pragmatik tahlil*** ham muhimdir. Unda nutqiy akt ifodalagan ma'nio bevosa kontekst bilan aloqador o'rganilgan holda nutqiy aktning ta'sirchanligi, samaradorligi va ijtimoiy hamda madaniy ta'sirlarni inobatga olgan holda qaydalanadi.

Demak, nutqiy aktlarning nazariy jihatdan o'rganilishi unga xos uslub va yondashuvlarning ishlab chiqilishiga zamin yaratadi. O'zbek tilshunosligida ham nutqiy aktga aloqador tadqiqotlar yangilik ruhida bo'sha ham, biroq unda jadallik bilan olib borilayotgan sohaga doir zamonaliviy ilmiy tahlillar ham faol rivojlanmoqda. O'zbek tilshunosligida nutqiy aktlarning o'rganilishida qator usul va yondashuvlar tadqiq etilqan, jumladan:

Deskriptiv(tavsiflovchi) yondashuv

Analitik yondashuv

Taqqoslash va kontrastiv tahlil

Madaniy-lingvistik yondashuv

1. Deskriptiv, ya'ni tavsiflovchi yondashuv. Unga ko'ra nutqiy aktlar nazariyasining tilshunoslikning ma'lum sohasi doirasida namoyon bo'lishi tahlilga tortiladi. Jumladan, korpus lingvistikasi nutqiy aktlar tahlil qilinishi mumkin bo'lgan yo'nalishlardan biri sanalib, unda katta hajmli matnlar, ular og'zaki yoki yozma ko'rinishga ega bo'lishidan qat'i nazar tahlil obyekti sifatida qabul qilinadi. Unda nutqiy aktlarning turlari, qo'llanish chastotasi, kontekstda ishlatilish darajasi, morfologik va sintaktik xususiyatlari empirik ma'lumotlarga asoslangan umumlashmalarning yuzaga kelishida muhim ahamiyat kasb etadi. Bundan tashqari, deskriptiv tahlil kvantitativ tahlilni ham o'z ichiga olib, ushbu tahlil keng qamrovga ega. Bunda nutqiy aktda nazarda tutilgan bayonet keng va batafsil ma'lumot olish imkonini beradi. Biroq ushbu tahlil namunasi korpus lingvistikasi tashkil topgan qamrovga nisbatan cheklangandir.

Nutqiy aktlar o'rganilishidagi yana bir yondashuv bu *analitik yondashuv* sanalib, u quyidagicha guruhlardan tashkil topgan:

I. Pragmatik tahlil.

II. Semantik tahlil.

III. Sintaktik tahlil.

IV. Funksional tahlil.

Pragmatik tahlilning kelib chiqish asoslari Jon Searle ning nutqiy aktlar nazariysi, Paul Grisning muloqot prinsiplariga asoslanadi. Bunda nutqiy aktlarning so'zlashish jarayonida unga yuklangan vazifa, maqsad hamda auditoriyaga yetkazib berish maqsad qilingan axborot mazmuni obyekt sifatida tanlanadi. Keyingi tahlil bevosita *nutqiy aktlarning semantikasi* bilan aloqador hisoblanib, ularda nazarda tutilgan ma'no, tanlangan birlikning ifodaviy xususiyatlari, ma'no ko'chish usullari haqida tadqiq qilinadi. *Sintaktik tahlil* nutqiy aktlarning tuzilishi, jummalarga xos struktura, ular o'rtasidagi sintaktik jihatlarga ko'ra belgilanib, nutqiy akt va sintaksis o'rtasidagi o'zaro aloqaning ochiqlanishi uchun asos vazifasini bajaradi:

Nutqiy akt → sintaksis

Funksional yondashuv nutqiy aktlarning muloqot jarayonida bajargan vazifasi, ularning jumladagi roli va ahamiyatiga asoslanadi.

Shuningdek, nutqiy aktlarni o'rganishda keyingi yondashuv sifatida taqqoslash va kontrastiv tahlilni olish mumkin. Ushbu yondashuvga ko'ra o'zbek tilidagi mavjud nutqiy aktlarni boshqa tillar tizimidagi nutqiy aktlar bilan taqqoslash tilning o'ziga xos xususiyatlarini ochib berishga yordam beradi.

Madaniy-lingvistik yondashuv ham nutqiy aktlar ishtirok etgan kontekstga asoslangan holda ularning xalqlarga xos madaniy qadriyatlar va an'analarga ta'sirini o'rganib, nutqiy aktlarning lingokulturologik jihatlarini o'rganish fonida ish olib boradi. Demak, o'zbek tilshunosligida zamonaqiy tadqiqotlar doirasida nutqiy aktlarning mavjud ekanligi sohaga bo'lgan e'tiborning yuqori ekanligidan dalolat beradi. Biroq shuni ham aytish kerakki, nutqiy aktlar borasida tadqiqot olib borish uchun o'zbek tilshunosligida ham qator metodologik cheklolar ham yo'q emas, xususan:

- o'zbek tiliga oid katta hajmli til korpuslarining mavjud emasligi: korpus tarkibidagi so'zlik miqdorining ortishi nutqiy akt uchun mo'ljallangan tadqiqotlar ko'laming kengayishini ta'minlaydi;

TILSHUNOSLIK

- pragmatik nazariyalarning yagona qoidaga bo'ysunishi, ya'ni universallik – ushbu universallik o'zbek tilida mavjud nutqiy aktlar uchun ayrim hollarda mos kelmasligi ko'zga tashlanadi;

- nutqiy aktlarga oid belgilarni aniqlash va sinflarga birlashtirishda subyektivizmning ta'siri.

Yuqorida keltirilgan muammoli jihatlarni hal qilish o'zbek tilida korpus bazasini kengaytirish, pragmatik universallikka asoslangan til qoidalarini ishlab chiqish hamda sohadagi subyektivizmni kamaytirishga erishish orqali bo'ladi.

Bundan tashqari, nutqiy aktlarni tilshunoslikning turli sohalari doirasida o'rganish ushbu yo'nalishning o'zaro integrativ holatini yuzaga keltirishga xizmat qiladi. Jumladan, psixolingvistika va nutqiy aktlarning o'zaro uyg'unlashuvi nutqni yaratish, uni tushunish va ijtimoiy kontekst bilan aloqadorlikda hosil bo'luvchi kognitiv va psixologik holatlarga asoslangan holda jarayonlarni tadqiq qilishga yordam beradi[4]. Bu jarayonlar so'zlovchi va tinglovchi xotirasi, diqqati, his-tuyg'ulari, bilim va tajribalari bilan umumiylig hosil qilgan holda amalga oshiriladi. Nutqiy aktlarning psixolingvistik xususiyatlari quyidagilarda namoyon bo'ladi: nutqiy aktlardan ko'zlangan asosiy psixolingvistik jihat bu so'zlovchi tomonidan ifodalangan niyat yoki maqsad sanalib, bu illokutiv kuchning til vositasi sifatida yuzaga kelishida asosiy omil o'laroq namoyon bo'ladi. So'zlovchining niyat yoki maqsadi inson tafakkurida yuzaga keluvchi motivatsion faktor sifatida shakllanib, tinglovchi tomonidan tushunish faktorining anglashilishiga sabab bo'ladi. Nutqiy akti amalga oshirish jarayonida so'zlovchi o'z fikrlarini kodlash jarayonidan(jumlalarni tanlash, gap hosil qilish va ohang) o'tkazadi. Tinglovchi esa nutqning dekodlash jarayonida bevosita ishtirot etadi[4,20]. Psixolingvistika doirasida o'rganiladigan nutq nuqsonlari(afaziya, alaliya, disleksiya) kabi omillar ham nutqiy aktning yuzaga kelishiga to'siq bo'lishi mumkin. Sababi, so'zlovchi so'zlash qobiliyati va tinglovchi esa nutqni tushunish qobiliyatining buzilishi nutqiy akt holatiga ta'sir qiladi[4,50].

Nutqiy akt va nutq nuqsonlari o'rtaсидаги aloqadorlikni afaziya kasalligi orqali ko'rib chiqamiz. Afaziya – miya shikastlanishi natijasida kelib chiquvchi til vazifasining buzilish kasalligi bo'lib[4], u nutqiy aktning uzvlarining deyarli barchasiga ta'sir o'tkazadi:

Lokutiv akt buzilishi – afaziya so'zlovchining to'g'ri talaffuz qilish, grammatic qoidalarga asoslangan jumlalar tuzish, leksik jihatlarini jumlalarga muvofiq qo'llay olishda kamchiliklarga yo'l qo'yish kabi holatlarga ta'sir o'tkazadi[4]. Misol uchun, miyaning Broka qismi buzilishi natijasida yuzaga keluvchi Broka afaziyasida bemorlar so'zlash jarayonida qisqa, grammatic sodda, semantik jihatdan tushunarli gaplarni tuza olish ko'nikmasiga ega. Vernike afaziyasida esa ular uzun, grammatic murakkab gaplarni tuza olishsa-da, ularning ma'nosida g'alizlik kuzatiladi[4].

Illokutiv akt ham afaziya natijasida buzilishi mumkin. Bunda so'zlovchining o'z niyat yoki maqsadini aniq ifodalash qobiliyatidan kasallik sababli foydalana olmasligi mumkin. Masalan, bemor so'rashni xohlayotgan biror narsani buyruh ohangida gapireshi yoki aksincha buyruq jarayonidan so'rov tarzida foydalanishi afaziya natijasida yuzaga keladi. Demak, bunda illokutiv kuch noto'g'ri tanlanishi yoki uning noto'g'ri ifodasi ko'zga tashlanadi. Yoki tanlangan maqsad bemor tomonidan tushunarsiz ifodalaniishi, noto'g'ri talqin qilinishi ham ushbu jarayonga mos holat sanaladi.

Perlokutiv aktga afaziyaning ta'siri quyidagilarda namoyon bo'ladi: tinglovchi so'zlovchi tomonidan uzatilgan axborotni tushunishda qynaladi: uzatilgan axborotga tushunmaslik yoki javob berilmashlik holatlari uchrab turadi. Yuqorida keltirilgan fikrlarni quyidagi chizma orqali asoslash mumkin:

| | |
|------------------|--|
| Broka afaziysi | <input checked="" type="checkbox"/> Lokutiv va illokutiv akt(fikrni ifodalash) |
| Vernike afaziysi | <input checked="" type="checkbox"/> perlokutiv akt |

XULOSA

Xulosa sifatida aytish mumkinki, nutqiy aktlarning turli usul va metodik yondashuvlar asosida o'rganish kelgusida ushbu yo'nalishda olib borajak tadqiqotlar uchun poydevor vazifasini o'taydi, bundan tashqari, nutqiy aktlarga doir o'zbek tilshunosligiga xos me'yoriy qoidalarni ishlab chiqish, kontekst miqdorini kengaytirish, til sohalari integratsiyasiga asoslangan yondashuvlarning mavjudligini ta'minlash ham nutqiy aktlarni o'rganishdagi samaradorlikni ta'minlashga yordam beradi. Nutqiy aktlarning tilshunoslikning boshqa yo'nalishlari bilan o'zaro integratsiyasini o'rganish esa ushbu sohada yanada yangi usul va metodik yondashuvlarning ishlab chiqilishiga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Austin, J.I (1962). How To Do Things with Words: The William James Lectures delivered at Harvard University 1955.
2. Searle JR. The structure of illocutionary acts. In: Speech Acts: An Essay in the Philosophy of Language. Cambridge University Press; 1969.
3. Safarov Sh. Pragmalingvistika: monografiya. – Toshkent, 2008.
4. Usmonova Sh. Psixolingvistika. – Toshkent, 2014.
5. Арутюнова Н.Д. Предложение и его смысл. М., 1976
6. Курбонова М. А. Ўзбек болалар нутқининг прагматик хусусиятлари. Филол.фан.докт.дисс. – Тошкент, 2018.
7. Сафаров Ш. Прагмалингвистика. Тошкент: "Ўзбекистон миллий энциклопедияси", 2008.
8. Ҳакимов М. Ўзбек тилида матннинг прагматик талқини: Филол.фан.докт.дисс. – Тошкент, 2001.
9. Шамахмудова Азиза Фуркатовна. Билвосита нутқий актларни мулокот матннада воқелантирувчи этнопрагматик омиллар (Испан тили мисолида). Филол.фан.докт.дисс. – Самарқанд, 2019.